

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**XODJAYOROVA BAHORA AKRAM QIZI**

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNI  
IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI  
(5-6 sinf o‘quvchilari misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Xodjayorova Bahora Akram qizi**

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (5-6 sinf o'quvchilari misolida) ..... 3

**Ходжаёрова Баҳора Акрам кизи**

Педагогические условия социализации учащихся на основе творческого подхода (на примере учащихся 5-6 классов)..... 19

**Khodjayorova Bakhora Akram kizi**

Pedagogical conditions of socialization of pupils on the basis of a creative approach (on the example of 5-6 class pupils)..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 41

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06. RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**XODJAYOROVA BAHORA AKRAM QIZI**

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNI  
IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI  
(5-6 sinf o‘quvchilari misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida raqami bilan B2021.4.PhD/Ped2827 ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Quronov Muhammadjon**  
pedagogika fanlari doktori, professor  
**Narzikulova Dilnoza Xashimjonovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-12-29; faks (0366) 239-17-14; e-mail: [samdu\\_ped\\_kengash@umail.uz](mailto:samdu_ped_kengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-12-29; faks (0366) 239-17-14

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi  
(2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**X.I.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**Sh.R.Urakov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
p.f.d (PhD), dotsent

**N.Sh.Shodiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalash faoliyatiga yo'naltirilgan innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuningdek, ijodiy yondashuviga o'quv jarayonining asosiy paradigmasi sifatida qarash hamda dunyoning umumiy manzarasi bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchining fikrlash qobiliyati, muammolarni his qilishga nisbatan sezgirlikni oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yuzaga kelgan hozirgi vaziyat yosh avlodni ijtimoiy tarbiyalashning yangicha modellarini ishlab chiqishni va tatbiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'smirlik yoshidagi bolalarda kreativlikni shakllantirish muhim.

Dunyo miqyosida shaxsni ijtimoiylashtirish omillari, kategoriyalari, ijodiy faoliyatni tashkil etish muammolari bo'yicha tizimli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'limda ijodiy qobiliyatlar va kreativlikni shakllantirish omillari, pedagogik ijodkorlikning konseptual asoslari, kasbiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish masalalari, o'smirlar ijodkorligi, ijodiy qobiliyatlar nazariyasi, innovatsion ijodkorlik, ijodiy ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda, umumta'lim maktablari o'quvchilarining ijtimoiylashuvining pedagogik shart-sharoitlarini kreativ yondashuvlari orqali takomillashtirishni ilmiy asoslash zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi rivojlanish bosqichida ta'limining istiqbollari va konseptual asoslari shaxsining ichki madaniyatini shakllantirish, uning qadriyatlar tizimini va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan rivojlantirishga, ayniqsa, kelajak avlodni unib-o'sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"<sup>1</sup>, - degan fikrlari globallashtirish sharoitida shaxsni ochiq ijtimoiy muhitda, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari – umumiy o'rta ta'lim maktabi, oila, mehnat jamoalari va jamoatchilikning bir-biri bilan uzviy aloqa qilish asosida tarbiyalashni muhimlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya

---

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyev. Milliy yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T. O'zbekiston, 2017, 592 b

berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashtirish jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy. Madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ta'lim, madaniyat va ijodning o'zaro ta'siri turli soha vakillari tomonidan ilmiy bilishning obyekt sifatida taqiq qilingan. Jumladan, pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya, tarix va boshqa qator sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'ziga xos tarzda nazariy g'oyalar ilgari surilgan.

So'nggi yillarda respublikamizda ijtimoiylashuv va uning kategoriyalari bilan D.X.Nasriddinova, Z.T.Saliyeva, M.Quronov, N.G.Ismatova, N.M.Egamberdiyeva kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Ta'limda ijodiy qobiliyatlar va kreativlikni shakllantirish omillari, pedagogik ijodkorlikning konseptual asoslari, kasbiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish masalalari G.N.Ibragimova, D.D.Muradova, D.M.Maxmudova, K.J.Mira'zimov, Ch.T.Shakirova, Sh.S.Sharipov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Madaniyatga, uning unsuri sifatida va yetuklikka erishtiruvchi ijodkorlik muammolariga MDH olimlaridan A. S. Zapesoskiy, V. A. Slastenin, V. L. Benin, V. S. Bibler, D. S. Lixachev, Ye. V. Sayko, I. Ye. Vidt va boshqalar alohida to'xtalib o'tganlar. Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning omillari A. V. Morozov, D. V. Chernilevskiy, M. M. Zinovkina va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ijod qilishning psixologik xususiyatlariga qaratilgan konseptual nazariyalar A. N. Leontyev, D. B. Bogoyavlenskaya, Y. A. Ponomaryov, O. A. Xalifayevlar tomonidan yaratilgan.

O'smirlar ijodkorligi, ijodiy qobiliyatlar nazariyasi, innovatsion ijodkorlik, ijodiy ta'lim-tarbiya mazmuni A. Craft, F. Barron, L. Kardos, M. Fryer, P. D. James, R. E. Goldsmith, R. Root-Bernstein, Ye. Torrantslar kabi xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, H. Gardner, R. Sternberglar tomonidan kreativ yondashuvning ijodiy ta'limdagi ahamiyati o'rganilgan.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, 5-6-sinf o'quvchilar ijtimoiylashuvini ta'minlashda ijtimoiylashuv va moslashuvning o'zaro aloqadorligi hamda o'quvchilarning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda kreativ yondashuvning ahamiyati va pedagogik shart-sharoitlari alohida tadqiq etilmagan. Ana shu sababli dissertatsiya mavzusi "Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (5-6 sinf o'quvchilari misolida)" tarzida belgilandi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Samarqand Davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga rejasiga muvofiq

№Sped-01 raqamli “Uzluksiz ta’limni rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari” mavzusi doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** 5-6-sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuvini ta’minlashda kreativ yondashuvning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

5-6 sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning manbai sifatida kreativlik fenomenini mohiyatini oydinlashtirish asosida mazkur jarayonni takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarning shaxsiy va ijodiy shakllantirish va rivojlantirishning manbai sifatida kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirishning o‘quv tizimini takomillashtirish;

kreativ yondashuv asosida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy muhitni yaratish uchun psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish;

kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarning shaxsiy va ijodiy resurslarini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi mezon va ko‘rsatkichlarini asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kreativ yondashuv asosida 5-6 sinf umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun Andijon viloyati, Samarqand shahri va Kattaqo‘rg‘on shaharlari umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan 578 nafar respondent tanlab olindi.

**Tadqiqot predmetini** kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning mazmuni, shakl va metodlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** dissertatsiya ishida nazariy (psixologiya, pedagogika va falsafaga oid adabiyotlarni tahlil qilish), ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, empirik (suhbat, kuzatuv, so‘rovnoma, test, psixologik va pedagogik diagnostika), natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishda kreativ yondashuvni tatbiq etish o‘smirlar ijodini shakllantirishning pedagogik asoslari (maqsadli yo‘naltirish, madaniyat bilan to‘ldirilgan muhit mazmuni, faoliyat texnologiyasi va mexanizmlari, mezon va ko‘rsatkichlar) shaxs madaniy shakllanishining asosiy mexanizmi sifatida aniqlangan;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi va umumiy o‘rta ta’lim maktabidan tashqari hamda o‘quv-tarbiyaviy ishlar tizimi o‘quvchilarni ijodkorlika yo‘naltirish va madaniy-innovatsion faoliyat, kreativ ta’lim va shaxslararo muloqot, madaniyat va texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirilgan;

zamonaviy o‘smirlarning ijodiy potensialini shakllantirish uchun shart-sharoitlar sifatida o‘quvchilarning madaniy faoliyatini tashkil etishga va o‘qituvchilarni ushbu jarayonga (tashkiliy, motivatsion, ijtimoiy-pedagogik,

texnologik) tayyorlashga yordam beradigan madaniy-ma'rifiy muhitni yaratish uchun psixologik hamda pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan;

o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda integrativlik, maqsad, mazmun, texnologik va pedagogik pozitsiyalarning birligiga asoslanish orqali o'quvchilar ijodini rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarini ijtimoiylashtirishda ijodkorlik fenomenining tarkibiy va tadqiqot komponenti va o'smir shaxsiy va ijodiy resurslari kompleksining mezon-amaliy komponenti ishlab chiqilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim va tarbiya jarayonining mazmunini madaniyatlar muloqoti, ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirish yo'lidagi gumanitar va maxsus tayyorgarlik tarkibining o'zaro ta'siri orqali o'quvchilarini ijtimoiylashtirish metodikasi ishlab chiqilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktabida madaniy-ma'rifiy o'quv va tarbiyaviy muhitni yaratish uchun psixologik va pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi, bu o'quvchilarning madaniy faolligini va o'qituvchini ushbu jarayonga tayyorlashni tashkil qilish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot metodologik bazasining ta'minlanganligi, rasmiy manbalardan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlardan foydalanilganligi, tadqiqotning konseptual-kategorial apparati to'liq va to'g'ri tuzilganligi; o'rganish maqsadlari, vazifalari, obykti va mavzusiga javob beradigan empirik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash uchun diagnostika usullari to'plamidan foydalanilganligi, olingan empirik tadqiqot natijalarini matematik-statistik usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda "ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhiti" tushunchasini kiritish orqali pedagogikaning konseptual apparati kengaytirilganligi, o'smirlarning madaniy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yo'lidagi o'quv jarayoni modellari doirasida o'quvchining shaxsiy va ijodiy manbai sifatida o'smirlar o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning mohiyati, umumiy o'rta ta'lim maktabining umumiy o'rta ta'lim maktabi kreativ yondashuviga asoslangan ta'lim muhiti barpo etish to'g'risida, bu pedagogik tizimlar nazariyasiga asoslovchi va protsessual tarkibiy qismlar nisbati bilan hissa qo'shadi, shuningdek, shaxsni rivojlantirish nazariyasini shaxsni va ijodiy manba sifatida ijodni rivojlantirish nuqtayi nazaridan shaxsni aniqlashga ijtimoiy va psixologik tayyorlik nisbati jihatidan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'smirlarning shaxsiy va ijodiy resurslarini yaratish orqali amalga oshiriladigan, asosiy va xususiy pedagogik sharoitlar tizimining tarkibini uyg'unlashtirish nuqtayi nazaridan o'quvchilar ijodini shakllantirish tamoyillari, shuningdek tadqiqot natijalari va xulosalari pedagogika fanida ishlab chiqilgan o'qitish sifati muammosini chuqurlashtiradigan va kengaytiradigan umumiy o'rta ta'lim maktabining barcha darajadagi o'quvchilarning ijtimoiylashtirish, hamda shaxsiy va ijodiy yo'nalishlari majmui

sifatida shaxs ijodini shakllantirishga umumiy o'rta ta'lim maktabining kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya tizimini tashkil etishning ta'sirini o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin va ta'lim bu muammoni hal qilish uchun yangi yo'nalishlarni ochishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarini ijtimoiylashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ijtimoiylashtirishda kreativ yondashuvni tatbiq etish orqali o'smirlar ijodini shakllantirishning pedagogik asoslari (maqsadli yo'naltirish, madaniyat bilan to'ldirilgan muhit mazmuni, faoliyat texnologiyasi va mexanizmlari, mezon va ko'rsatkichlar) shaxs madaniy shakllanishining asosiy mexanizmiga oid takliflar YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 21-iyuldagi 02-07-1940/04-son ma'lumotnomasi). Natijada 5-6 sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish imkoni oshirilgan o'quvchilarni ijodkorlika yo'naltirish va madaniy-innovatsion faoliyat, kreativ ta'lim va shaxslararo muloqot, madaniyat va texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali umumiy o'rta ta'lim maktabi va umumiy o'rta ta'lim maktabidan tashqari hamda o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimi takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20140906164153 raqamli "Ilmiy pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali o'quvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 21-iyuldagi 02-07-1940/04-son ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy shakllantirish va ijtimoiylashtirishning o'quv tizimini takomillashtirishga sharoit yaratilgan; o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda integrativlik, maqsad, mazmun, texnologik va pedagogik pozitsiyalarning birligiga asoslanish orqali o'quvchilar ijodini rivojlantirish tizimiga oid takliflar YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 21-iyuldagi 02-07-1940/04-son ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ijtimoiylashtirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy muhitni yaratish imkoni oshirilgan; zamonaviy o'smirlarning ijodiy potensialini shakllantirish uchun shart-sharoitlar sifatida o'quvchilarning madaniy faoliyatini tashkil etishga va o'qituvchilarni ushbu jarayonga (tashkiliy, motivatsion, ijtimoiy-pedagogik, texnologik) tayyorlashga yordam beradigan madaniy-ma'rifiy muhitni yaratish uchun psixologik hamda pedagogik shart-sharoitlarga oid takliflar PZ-20140906164153 raqamli "Ilmiy pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali o'quvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining

2022-yil 21-iyuldagi 02-07-1940/04-son ma'lumotnomasi). Natijada keraktiv yondashuv asosida o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy resurslarini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi mezon va ko'rsatkichlarini asoslashga sharoit yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti belgilangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kreativ yondashuv asosida 5-6 o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda ilk o'smirlilik yoshidagi o'quvchilar ijtimoiylashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari, o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish kreativ pedagogikaning asosiy kategoriyasi sifatida hamda amaldagi holati tahlili, shuningdek, kreativ yondashuv asosida 5-6 sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.

Ijtimoiylashuv insonning ta'lim, madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni bo'lib, insonlarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalab, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga ko'ra o'ta murakkab jarayondir. Ijtimoiylashuv – insonning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi – insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini angelaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib yetishishiga erishishdan iboratdir. Bunda pedagogik faoliyat muhim ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafaqat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati

ta'minlanadi. Pedagogik maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvini ta'minlab berishi lozim. Professor N.Egamberdiyevaning fikricha, ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari kasbiy ta'limni bir vaqtning o'zida ham shaxsning individual rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ham o'quvchining shaxsiy va kasbiy nuqtayi nazarini shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lishini talab qiladi. Ushbu jarayonlarning muvaffaqiyati quyidagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi: o'quvchilarni faol ijtimoiy va kasbiy munosabatlarga jalb etish; birgalikdagi samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini to'la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratadi.

S.Zohidova "ijtimoiylashuvning alohida yo'nalishi sifatida kasbiy ijtimoiylashtirishga doir turli yondashuvlarni tahlil etish asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiylashtirishni yaxlit tizim sifatida talqin qiladi va har tomonlama chuqur o'rganish lozim"<sup>2</sup>, degan xulosaga kelgan. Olima tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish mexanizmlari alohida ko'rsatib o'tiladi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishning psixologik asoslarini, xususan, autopsixologik kompetentlik asoslarini kreativ qobiliyatlar tashkil etishiga alohida e'tibor qaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimini jumladan, umumiy o'rta tizimini modernizatsiya qilish ta'lim va tarbiyaning an'anaviy usullarini ijodkorlikka yo'naltirilgan usullarga almashtirishni taqozo etmoqda. Ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish, ya'ni jamiyat rivojlanishi asoslarini madaniy idrok etadigan shaxsni tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa insonparvarlashtirish g'oyalariga asoslangan madaniy va ijodiy birlashma sifatida umumiy o'rta ta'lim maktabi muhitini rivojlantirishni dolzarblashtiradi.

Ma'lumki kreativ yondashuv asosida 5-6 sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalar madaniy ta'lim muhitini shakllantirish va rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Madaniy ta'lim muhiti bevosita madaniyat tushunchasi bilan bog'liq hisoblanadi.

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun bolalikdan poydevor qo'yiladi hamda ta'lim va tarbiya vositasida tizimli chuqurlashtiriladi va takomillashtirib boriladi. Agar shaxsda mustaqil maqsad, o'z faoliyat mazmuni va metodlarini tanlash qobiliyati shakllantirilsa, ijodkorlik qobiliyati ham rivojlanadi. Bu bevosita madaniy muhitda amalga oshadi. Ijod qilishga qiziqishning tobora ortib borayotgani uning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'siri bilan belgilanadi. Ijodkor shaxsni shakllantirish tizimini takomillashtirish muammoning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik yo'llari va mexanizmlarini ishlab chiqishga bo'lgan talab va ehtiyojni oshiradi. Olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish hamda kreativ yondashuv asosida o'smirlarda ijodkorlikni shakllantirish orqali ularni ijtimoiylashtirish muammosini tadqiq qilish ushbu jarayonda ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitida

---

<sup>2</sup> Zohidova S.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari: ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. PhD..... diss..– T., 2019.-166 b.

amalga oshirish uchun mavjud texnologiyalar, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlarni uyg'un tatbiq etishni shart qilib qo'yadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Kreativ yondashuv asosida 5-6 sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik shart-sharitlari**" deb nomlanib, unda talabalar kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari, kreativ fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi mazmuni yoritilgan.

Boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tish davrida ijtimoiy-psixologik moslashishning o'ziga xos xususiyatlari yosh davrlari psixologiyasi nuqtayi nazaridan boshlang'ich ta'limning yakunga yetishi va o'rta maktabga o'tish kichik o'smirlik davrining boshlanishi bilan tavsiflanuvchi murakkab davr hisoblanadi. Jismoniy jihatdan o'smirlik jismoniy rivojlanishdagi keskin tezlashish hamda organ va to'qimalarning notekis taraqqiy etishi kuzatiladi. Jismoniy o'zgarishlar bolada kattalik hissini tasdiqlatish istagini kuchaytiradi.

Boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tish motivatsion inqirozli davr hisoblanadi. Bu davrda o'quv faoliyati motivatsiyasi pasayishi, ijtimoiy munosabatlar (avvalo, tengdoshlar bilan munosabat)ga mo'ljal olish ortishi, yetakchi motiv tengdoshlar orasida ajralib turish, tan olinish kabi motivlarning roli kuchayishi qayd etiladi. 11-13 yoshli bolalarda vaqtinchalik tezkor fikrlash, aqliy rivojlanishdagi susayishlar kuzatilishi mumkin. Bu, yuqorida aytib o'tganimizdek, vaqtinchalik hodisa bo'lib, o'quvchini dangasa, aqliy va intellektual rivojlanishida orqada qolgan degan, xulosa chiqarishga asos bo'lmaydi. Bu davrdagi eng muhim psixologik o'zgarish – o'quv faoliyati o'rniga yetakchi faoliyat darajasiga tengdoshlar bilan muloqot ko'tariladi, asosiy ehtiyoj guruhga mansublikni his etish ehtiyojidan iborat bo'ladi.

O'rta sinflarga o'tish davrining qiyinchiliklari ma'lum darajada yakkalanish bilan kechishi mumkin. Bu esa ilk o'smirlik davrida bolalar uchun haqiqiy ma'nodagi sinovga aylanadi. Shuning uchun ushbu davrda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning asosiy sabablarini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu yoshdagi bolalarga emotsional jo'shqinlik xos bo'lib, hattoki bu holat dars jarayonida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Mazkur davrda o'quvchi ichki pozitsiyasini quyidagilar o'zgartiradi: yangi o'qituvchilar bilan munosabatga kirishish, talablardagi xilma-xillikning ortishi, turli o'quv xonalarida tahsil olish, katta sinf o'quvchilar bilan munosabatlarning kengayishi.

O'quvchining umumiy o'rta ta'lim muassasasi sharoitiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish joizdir: ijtimoiy moslashuvning kechishi murakkab dinamik tavsifga ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli qadriyatlar haqidagi tasavvurlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi; tahsil jarayonida o'z-o'zini anglash, atrof-olam va borliqqa nisbatan qadriyatli munosabatlar tizimi rivojlanadi; o'quvchilik yillari tashkiliy, metodik, psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsiy-kasbiy ijtimoiylashtirishning eng muhim bosqichidir.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarini ijtimoiylashtirish muammosi o'ta dolzarb hisoblanib, u

o'quvchining o'quv jarayoniga har tomonlama moslashuvini, ya'ni psixologik-pedagogik, ijtimoiy-psixologik, psixo-fiziologik, shaxsiy-motivatsion aspektlarni qamrab oladi. O'quvchi ularning har biri bilan o'qishning ilk bosqichidayoq to'qnash kelishi mumkin.

O'quvchining umumiy o'rta ta'lim muassasasiga optimal moslashtirish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish uchun 5-sinf o'quvchilarining hayotiy rejalari va qiziqishlari, yetakchi motivlari, intilishlari, o'z-o'zini baholashi va o'z xulqini oqilona boshqara olish darajalarini bilish muhimdir.

5-sinf o'quvchilarini ijtimoiy-psixologik va didaktik jihatdan uyg'un holda samarali moslashuvini ta'minlash quyidagi qator qoida va tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab etadi:

1) Har bir o'quvchini shaxs sifatida qabul qilish hamda hamkorlik pedagogikasi g'oyalariga amal qilish;

2) Pedagogik-psixologik monitoring o'tkazib borish, o'zlashtirish darajasidan qat'iy nazar, har bir o'quvchiga individual yondashish;

3) Qulay didaktik ish shakllarini topish va foydalanish;

4) 5-sinfda o'qitiladigan har bir fan mazmuniga ijtimoiy-psixologik moslashtirishga qaratilgan mavzularni singdirish.

Ta'lim muassasalar, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishlariga alohida e'tibor berilgan. 5-6 sinf o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda oila, mahalla, maktab hamkorligida kasbga yo'naltirish bugungi kunning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zaruriyati hisoblanadi.

O'smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda hamkorlik pedagogikasi asosida uyushtirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar ma'lum talablarga javob berishi lozimligini tadqiqot natijalari tasdiqladi. Ya'ni:

- tarbiyaviy tadbirning rejali, maqsadli, izchil, tizimli o'tkazilishi;

- tarbiyaviy tadbirni hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etish;

- 5-6 sinf o'quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish;

- tarbiyaviy tadbirlarning 5-6 sinf o'quvchilar qiziqishi, mayli, intilishlariga javob berishi;

- hayotiy muammolarning yechimini topishga yo'naltirilganligi;

- ta'lim jarayonida olingan ahloqiy-ma'naviy bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, to'ldirish va rivojlantirish;

- har bir o'quvchining jamiyatning faol fuqarosi bo'lishga tayyor turish.

Tadqiqotlar jarayonida biz sinfdan va maktabdan tashqari olib borilgan tarbiyaviy ishlarni mazmunan samaradorligiga qarab quyidagi qator guruhlarga birlashtirdik:

- yakka tartibda olib borib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar;

- ma'lum bir guruh bilan o'tkaziladigan tadbirlar.

Maktablarda o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar sinfdan tashqari ishlar bo'lib, bunda sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat berib boriladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning

ijtimoiylashuvi va faolligini oshirish uchun keng imkoniyatlarga ega. 5-6-sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvini ta'minlashda kreativ yondashuvda o'quvchilarni ijtimoiylashuviga ta'sir etib borilishini ta'minlab borilishi lozim.

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda maktablarda o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, hamda maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuv roli kattadir. Bu borada amaliyotdagi holat o'rganilib, o'quvchilarni ijtimoiylashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun turli psixologik usullarni bilishi kerak. Mashg'ulotni fikran xayoldan o'tkazish va loyihalash, har bir o'quvchiga qalbiga yo'l topa olish uchun o'qituvchi o'z ustida doimiy mustaqil ishlashi kerak.

**“Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning samaradorlik darajasini tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobda kreativ yondashuv asosida 5-6 sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-pedagogik xususiyati hamda kreativ yondashuv asosida 5-6-sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun Andijon viloyati Shaxrixon tumani 48-maktab, Samarqand viloyati Samarqand shahar 50-maktabi va Kattaqo'rg'on shahar 5-maktablaridan 578 nafar respondent tanlab olindi.

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish darajalar (dastlabki) nazoratning natijalarini tahlil qilishi shuni ko'rsatadiki, har ikkala guruhlarda barcha mezonlar bo'yicha o'zlashtirish darajalari deyarli bir xil ekanligi, ayniqsa past darajadagi o'quvchilar soni juda ko'pligi, tajriba guruhlarida o'rtacha 75% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhlaridagi bu ko'rsatkich 76% ni tashkil etadi, o'rta darajadagi o'quvchilar soni esa mos ravishda 17% va 16.5% ni, yuqori darajadagilar esa deyarli bir xil 7-8% ni tashkil etdi.


**1-jadval.**

**Barcha ta'lim muassasalari bo'yicha o'quvchilarining yakuniy bosqichdagi kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirish darajalari**

	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	soni	Yuqori	O'rtacha	Past	soni	Yuqori	O'rtacha	Past
		5	4	3		5	4	3
Muloqotchanlik	290	67	114	109	288	26	51	211
Birgalikda harakat qilish	290	72	113	105	288	29	49	210
Milliy mentalitetga xos xususiyatlar	290	73	110	107	288	27	49	212
Muomala madaniyatining shakllanganligi	290	69	104	117	288	26	50	212
Dunyoni va o'zini anglash	290	71	110	109	288	26	58	204
E'tibor va xayrixohlik	290	67	102	121	288	26	51	211
Daxldorlik	290	72	107	111	288	28	53	207

Eksperimental va nazorat guruhlarini rivojlantirish va ushbu o'quvchilarda kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish darajalari eksperimentning keyingi bosqichida aniqlandi.

Eksperimentning yakuniy bosqichi kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish darajalari ilgari surilgan g'oyalar va olib borilgan tadqiqot ishining amaliy natijalari asosida yangi natijalar olindi.



**1-rasm. O'quvchilarning yakuniy bosqichdagi kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirish darajasi (yakuniy bosqich)**

Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish darajalari (yakuniy) nazoratining natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala guruhlarda barcha mezonlar bo'yicha o'zlashtirish darajalari turlicha ekanligi aniqlandi unda past darajadagi o'quvchilar soni tajriba guruhlarida 111 (38,4%) nafarni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhlarida 210 (72,8%) nafarni, o'rta daraja esa tajriba guruhlarida 109 (37,4%) nafar o'quvchini tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhlaridagi bu ko'rsatkich 52 (17,9%) nafarni tashkil etadi, yuqori darajadagilar esa 70 (24,2%) nafar o'quvchilar o'zlashtirgan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa 27 (9,3%) nafarni tashkil etdi.

Demak, olib borilgan tadqiqot ishlari samarali ekanligi statistik tahlil qilindi. Ushbu tahlilning ishonchli va haqqoniyligini isbotlash maqsadida matematik-statistik tahlil ishlari o'tkazildi.

Tajriba-eksperimental ishning keyingi bosqichi yakuniy bosqichdagi kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirish darajalarining qay darajada o'sganligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda eksperimentdan olingan natijalarning statistik tahlilini keltiramiz.

**Barcha ta'lim muassalarida o'quvchilarida yakuniy bosqichdagi olingan natijalar asosida statistik hisoblar jadvali**

Mezon va ko'rsatkichlar		Muloqatchanligi	Dunyoni va o'zini anglash	Birgalikda harakat qilish	E'tibor va xayrixohlik	Milliy mentalitetga xos xususiyatlar	Daxldorlik	Mualoma madaniyatining shakllanganligi
o'rtacha qiymat	tajriba	3,86	3,89	3,88	3,83	3,87	3,81	3,87
	nazorat	3,36	3,37	3,36	3,35	3,38	3,36	3,38
samaradorlik		1,15	1,15	1,16	1,14	1,14	1,14	1,14
tanlanma disper	tajriba	0,59	0,60	0,61	0,62	0,61	0,62	0,62
	nazorat	0,41	0,44	0,42	0,41	0,42	0,41	0,43
kvadratik chetlanish	tajriba	0,77	0,77	0,78	0,78	0,78	0,78	0,78
	nazorat	0,64	0,66	0,65	0,64	0,65	0,64	0,66
variatsiya ko'rsatkichlari	tajriba	0,20	0,20	0,20	0,20	0,20	0,21	0,20
	nazorat	0,19	0,20	0,19	0,19	0,19	0,19	0,19
empirik qiymat		8,46	8,60	8,81	8,06	8,19	7,65	8,10
kritik qiymat		1,65	1,65	2,65	3,65	4,65	1,65	1,65
ishonchli chetlanishi	tajriba	0,06	0,06	0,09	0,13	0,17	0,06	0,06
	nazorat	0,04	0,04	0,07	0,09	0,11	0,04	0,04
ishonch oralig'i	tajriba	3,80	3,83	3,79	3,70	3,70	3,75	3,81
		3,91	3,94	3,98	3,97	4,03	3,87	3,93
	nazorat	3,32	3,33	3,29	3,27	3,27	3,32	3,34
		3,40	3,41	3,42	3,44	3,50	3,40	3,42
Xulosa		N1	N1	N1	N1	N1	N1	N1

Demak, statistik formulalar va ular bo'yicha qo'yilgan shartlar tekshirilganda rivojlantiruvchi tajriba sinov bosqichi ishlaridagi olingan natijalarda o'rtacha qiymatlar bir-biridan farq qilib, muloqotchanligi 1.15 barobarga, dunyoni va o'zini anglash 1.15 barobarga, birgalikda harakat qilish 1.16 barobarga, e'tibor va xayrixohlik 1.14 barobarga, milliy mentalitetga xos xususiyatlar 1.14 barobarga, daxildorlik 1.14 barobarga va muomala madaniyatining shakllanganligi 1.12 barobarga yuqoriligi, tanlangan statistik mezonlar buyicha empirik qiymat kritik qiymatdan kattaligi va ishonch oraliqlarining bir biri bilan ustma-ust tushmasligi, qo'yilgan gipotezadan  $N_1$  ning qabul qilinishiga olib keladi, bu esa tajriba va nazorat guruhlaridagi kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirish darajasining o'zgarganligidan dalolat beradi.

1. Tajriba-eksperiment ishining asosiy maqsadi kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirishning darajasining rivojlantirish samaradorligiga ta'sirini baholashdan iborat bo'ldi.

2. Eksperiment ishi uch: tashxisiy diagnostik, izlanish-amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlarda amalga oshirildi. Tashxisiy bosqichda qayd qiluvchi eksperiment o'tkazildi. Uning maqsadi talabalarning kreativ yondashuv

asosida ijtimoiylashtirishning dastlabki darajasini aniqlash edi.

3. Yakunlovchi eksperiment natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi: olingan ma'lumotlar kreativ yondashuv asosida ijtimoiylashtirish darajasining amalga oshirish bo'yicha tajriba-eksperiment ishlarining rivojlantiruvchi bosqichida ishtirok etuvchi eksperimental va nazorat guruhlarini tanlashning to'g'riligini tasdiqladi va tajriba guruhlarida o'tkazilgan tajriba sinov ishlarining samaradorligi 14% ga yuqori ekanligi matematik-statistik usullar orqali isbotlandi.

## XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlash muhim muammo ekanligini ilmiy nuqtayi nazardan asoslashda ijtimoiy-psixologik moslashuvga alohida e'tibor qaratib, uning psixologik jihatlarini ham yoritish va moslashuv jarayoni o'zlikni anglash, shaxs sifatida o'z "men"ini baholash jarayoni ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ijtimoiylashuv tashqi muhit bilan o'zaro faol aloqa muhitida, ta'lim-tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida, o'quvchi o'z maqsadlarini mustaqil aniqlab, ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga munosib baho berganida amalga oshadi va optimal tarzda rivojlanadi.

Shaxslararo munosabat sohasiga moslashish, bunda kishilar bilan chuqur emotsional aloqa o'rnatish, samarali ijtimoiy moslashishga qaratilgan xulq-atvori motivlari, shaxs sifati va xarakteri, xulq-avtor tizimi kabilar samarali ijtimoiylashuvning belgilari sifatida qayd etish mumkin. Bizning tadqiqotimizda moslashuv jarayoni umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchisining yangi ta'limiy muhitga ijtimoiylashuvining tarkibiy qismi sifatida muhokama obyektini tarzida qabul qilinadi. Ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida, yuzaga keladigan qiyinchilik va muammoli vaziyatlarni bartaraf etish esa yangi ijtimoiy maqomni (5-6 sinf o'quvchilari sifatida) o'zlashtirish mexanizmi sifatida tadqiq etiladi.

Ijtimoiy moslashuv o'quvchi maqomiga muvofiq ta'lim oluvchilarni ijtimoiy muhit tomonidan qo'yiladigan va kutiladigan talablarni qabul qilish hamda ularga samarali javob qaytarishi bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, moslashuvchan xulq-atvor qarorlarini muvafaqiyatli qabul qilish, tashabbus bildirish va o'zining kelajagi bilan bog'liq bo'lgan aniq tasavvurlarga ega bo'lish bilan bog'liqdir.

Ta'lim muassasalar, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishlariga alohida e'tibor berilgan. 5-6 sinf o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda oila, mahalla, maktab hamkorligida kasbga yo'naltirish bugungi kunning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zaruriyati hisoblanadi.

O'smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda hamkorlik pedagogikasi asosida uyushtirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar ma'lum talablarga javob berishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarini ijtimoiylashtirishda kreativ yondashuvni tatbiq etish orqali oʻsmirlar ijodini shakllantirishning pedagogik asoslari, shaxs madaniy shakllanishining asosiy mexanizmi sifatida takomillashtirib borish kerak.

2. Oʻquvchilarni ijodkorlikka yoʻnaltirish va madaniy-innovatsion faoliyat, kreativ taʼlim va shaxslararo muloqot, madaniyat va texnologiyalarini uygʻunlashtirish orqali umumiy oʻrta taʼlim maktabi va umumiy oʻrta taʼlim maktabidan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etib borish darkor.

3. Oʻquvchilarni ijtimoiylashtirishda integrativlik, maqsad, mazmun, texnologik va pedagogik pozitsiyalarning birligiga asoslanish orqali oʻquvchilar ijodini rivojlantirish zarur.

4. Oʻquvchilar ijodiy potensialini shakllantirish va oʻquvchilarning madaniy faoliyatini tashkil etishga va oʻqituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlashga yordam beradigan madaniy-maʼrifiy muhitni yaratish, oʻquvchilarni ijtimoiylashtirishda maktablarda oʻtkaziladigan oʻquv mashgʻulotlari, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar hamda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda oʻqituvchini kreativ yondashuv asosida takomillashtirib borish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.01.2020.Ped 02.06 ПРИСУЖДАЮЩИЙ  
НАУЧНЫЕ СТЕПЕНИ В САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА**

**ХОДЖАЁРОВА БАХОРА АКРАМ КИЗИ**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА  
ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА  
(на примере учащихся 5-6 классов)**

**13.00.01- Теория педагогики. История педагогических учений.**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философских (PhD) педагогических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером В2021.4. PhD/Ped2827.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) на сайте Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Эгамбердиева Нодира Мелибоевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Курунов Мухаммаджон**  
доктор педагогических наук, профессор

**Нарзикулова Дилноза Хашимжоновна**  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

**Ведущая организация:** **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.01. 2020.Ped.02.06 при Самаркандском государственном университете. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, Университетский проспект, д. 15. Тел: (0366) 239-12-29; факс (0336) 239-17-14; e-mail: samdu\_ped\_kengash@umail.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрирован под номером \_\_\_\_\_). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Телефон: (0366) 239-12-29; факс (0366) 239-17-14

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г.)

**Х.И.Ибраимов**

Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.п.н., профессор

**Ш.Р.Ураков**

Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.ф.п.н., (PhD).

**Н.Ш.Шодиев**

Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом масштабе наблюдается тенденция развития системы образования за счет внедрения инноваций, направленных на научные исследования и практическому проектированную деятельность. Также большое внимание уделяется повышению творческой способности учащегося, восприимчивости к проблемам за счет рассмотрения творческого подхода как основной парадигмы образовательного процесса и гармонизации его с общей картиной мира. Сложившаяся ситуация требует разработки и внедрения новых моделей социального воспитания подрастающего поколения. В частности, важное место занимает формирование творческих способностей детей подросткового возраста путем расширения дидактических возможностей социализации учащихся.

На современном этапе развития Республики Узбекистан перспективы и концептуальные основы образования направлены на формирование внутренней культуры человека, а также на развитие его ценностей и мировоззрения. В социально-экономической политике, проводимой Правительством Республики Узбекистан и Президентом, важно принципиально развивать все стороны жизни страны, особенно создавать все необходимые условия для роста подрастающего поколения. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев: «Мы мобилизуем все силы и возможности нашего государства и общества, чтобы наша молодежь смогла стать самостоятельными мыслителями, иметь высокий интеллектуальный и духовный потенциал, стать людьми, не уступающим своим сверстникам в любой сфере мира, и стать счастливыми.» - это знак внимания, уделяемого развитию молодежи, за которой будущее нашего независимого Узбекистана<sup>3</sup>.

Процесс глобализации делает важным воспитание человека в открытой социальной среде, на основе гармоничного взаимодействия всех воспитательных структур общества - общеобразовательной школы, семьи, трудовых коллективов и общества. Для описания этого процесса используется понятие «социализация», так как личность формируется под влиянием социальной среды. Социализация – это процесс усвоения социальных норм и культурных ценностей общества, к которому принадлежит человек в течение своей жизни. Социализация напрямую связана с понятиями «личностное воспитание» и «личностное становление», поскольку вхождение учащихся в общество основано на принятии ценностей образовательного учреждения или общества, и достижении социальной, гражданской и личностной зрелости, на необходимом уровне осуществляется в общеобразовательных школах в процессе обучения.

Формирование и развитие творческого мышления, заставляющее их мыслить творчески, выдвигать новые идеи, является главным фактором

---

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш. М. «Мы решительно продолжим наш национальный путь и поднимем его на новый уровень, 1-том, Т, Узбекистан 2017. -592 с

изменения отношения к образованию, побуждения их к достижению поставленной цели.<sup>4</sup>

В концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года важными задачами являются «обновление содержания системы непрерывного образования в качественном отношении, а также подготовка профессиональных кадров, совершенствование методики преподавания и поэтапно применяя принципы индивидуализации к образовательному процессу». Это требует уточнения педагогико-психологических особенностей и факторов социализации учащихся общеобразовательной школы, совершенствования содержания социализации подростков.

